



SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IS A PLACE TO PROVIDE EMPLOYMENT

Gaybulayev Sarvar Uktam ugli¹

Saitov Sirojiddin²

Davlatboyeva Sojida Oybek qizi³

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

KEYWORDS

Small business and private entrepreneurship, market, competition, profitability

ABSTRACT

The importance of small business and private entrepreneurship in economic development. The role of the labor market in reducing the employment of the population and reducing unemployment. Ways to develop entrepreneurship to increase the employment of the population in competitive market conditions. On the formation of a favorable business environment for the further development of small business and private entrepreneurship. information on additional measures is provided.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7429509

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

² Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

³ Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI BANDLIKNI TAMINLASH O'RNI

KALIT SO'ZLAR:

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, bozor, musobaqa, rentabellik, tadbirkorlik

ANNOTATSIYA

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati. Aholini ish bilan bandligi va ishsizlikni kamaytirishda mehnat bozorining roli. Raqobatli bozor sharoitida hududlarda aholi ish bilan bandligini oshirishda tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakillantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rnlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohatlar natijasid tadbirkorlik mehnat unumdoorligini o'sishi, megnat mazmunidagi chuqur o'zgarishlar, qo'l mehnati tarqlagan sohalarning sezilarli kamayishi va inson omiliga yangicha yondashuv masalalari bilan bog'liq bo'lgan mehnatga haq to'lash tizimini taqiq etish, ayniqsa muhumdir.

Modernizasiyalashtirish jarayonida ishlab chiqarishga joriy qilish natijasida ishchi xodimlarning ilmiy va kasbiy tayyorgarligi, ularning mehnat va ijtimoiy faolligiga bo'lgan talablar kesgin ortdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli ukladligi korxonalarining raqobatga dosh berishi, korxonalarda personal mehnatni tashkel etish va haq to'lash tizimini takomillashtirish, mehnat ilmiy asosida tashkil etishning muhum yo'naliishi sifatida mehnat unumdoorligi va samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarni kichik va xususiy korxonalar personallar mehnatini tashkil etish, uning samaradorligini oshirish kompleks tadqiq qilishning alohida dolzarbligini ifodalaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorliknining iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faolyatini rivojlantirish – mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni taminlash, yagi ish o'rnlarini tashkil qilish, bandlik muommosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda muhum omil sifatida qaraladi. Shundan kelib chiqib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish respublikamizda keng ko'lamlı islohatlar va moderinzatsiya yo'lini izchil davom ettirishda asosiy yo'naliislardan biri bo'lmoqda.

Tadbirkorlik faolyatinining turli shakillari xilma-xil bo'lib ular orasida o'zining xo'jalik yuritish kolamini cheklanga bilan ajratib turuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhum o'rinni tutadi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro'yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o'rtacha soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lган faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalgilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo'yicha choralar qabul qilindi. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'layotgan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o'sish sur'atlari va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida uch yil davomida soliq tekshiruvlarini o'tkazish taqiqlandi.

Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini cheklayotgan bir qator muammolar hal etilmay qolmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining davlat, soliq va nazorat idoralari, tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarini aniq belgilab beradigan ma'muriy reglament to'liq ishlab chiqilmagan. Ochiqligi ta'minlanmagan ko'plab ruxsat berish tartiblari hamon saqlanib qolmoqda. Nazorat idoralarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari uchramoqda. Kichik biznes mahsulotlarini hududiy va jahon bozorlariga olib chiqish bo'yicha amaliy mexanizm yaratilmagan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga soliq, bojaxona hamda boshqa to'lovlar bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga ko'maklashadigan qo'shimcha imtiyoz hamda preferensiyalar berish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ularga ajratilayotgan kreditlar, birinchi navbatda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga va texnologik yangilashga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar hajmini ko'paytirishdir.

Mehnat bozoridagi faol dasturlar iqtisodiy islohatlarni amalga oshirayotgan zamonaliv iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini modernizatsiya hamda ishchi kuchining yuksak kasbiy tarmoq va mintaqaviy harakatchanligi zarur bo'lган inson kapitali rivojlanayoptgan sharoitlarda ish bilan bandlik siyosatinig eng muqobil turlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda kichik biznesning rivojlanishida qurilish va pardozlash materiallari, asbob - uskunalar, mashinasozlik ehtiyyot qismlari va uskunalar, elekrotexnika, kimyo,

farmatsevtika mahsulotlari, iste'mol tovarlarining ko'plab turlarini ishlab chiqarish va boshqalar yuqori potensial ega sohalar hisoblanadi.

Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasini oshirilishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik sub'yeqtolarini jalb qilish orqali ko'rishimiz mumkin.

Shuni ham ta'kidlash joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo'lgan, biroq ayni paytda yanada rivojlanish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo'limgan muvaffaqiyatli va istiqbolli kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab quvvatlash katta ahamiyatga ega.

Ushbu chora-tadbirlarlarni samarali kichik biznes sohasida ko'proq ish o'rnini yaratishga, jahon bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirishga yordam berib, mamkalatni eksport salohiyatini oshirishga va aholi daromadlarini oshishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyyotlar:

1. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 32-36.

2. Dilshod N. XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KORXONALARDA TUSHUMLAR AUDITINI TASHKIL QILISH BOSQICHLARI VA DASTAKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 105-110.

3. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. THE EFFECT OF THE SECRET ECONOMY IN A DAILY LIFE OF THE SOCIETY //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1A. – C. 56-59.

4. O'G'Lи N. D. R., Qizi T. D. Z. MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA UNGA OID YANGI YONDASHUVLAR //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 1-4.

5. G'Aybullaev Sarvar O. et al. O 'ZBEKİSTONDA İSTE'MOL SAVATCHASI HOZİRGİ HOLATINI VA UNİ SHAKİLLANTIRISH YO 'NALİSHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.

6. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

7. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta 'lim metodologiyasi rivojlanirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

8. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 58-60. – 2022.

9. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 96-98. – 2022.
10. Мухтаров Б. А. Имитационная система прогнозирования факторов в легкой промышленности //Молодой ученый. – 2017. – №. 40. – С. 122-124.
11. Muxtarov B., Murotjonova M. O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub 'ektlarining rivojlanishi //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 581-584.
12. Ogli R. A. R. THE DIFFERENCE BETWEEN THE CONCEPTS OF DATABASE AND DATABASE MANAGEMENT SYSTEM //Archive of Conferences. – 2022. – С. 33-34.
13. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
14. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 205-208.
15. G'aybullayev S. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 116-126.
16. Sirojiddin S., Azizbek A. TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 255-258.
17. Sirojiddin S., Nodira T., Dinora S. CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 265-270.
18. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 634-635.
19. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJUY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.
20. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 241-245.
21. Xaydarov B. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.